

## YUSUF XOS HOJIBNING SIYOSIY FALSAFASI “UCHINCHI RENESSANS” KONSEPSIYASI TALQINIDA

*Turabova Sevara Kattaqulovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti*

## YUSUF KHAASS HAJIB'S POLITICAL PHILOSOPHY IN THE INTERPRETATION OF THE ‘THIRD RENAISSANCE’ CONCEPT

*Turabova Sevara Kattakulovna, Associate Professor of the Department “Social Sciences” of the Termez University of Economics and Service*



<https://orcid.org/0000-0001-9028-6943>

e-mail:

[turobova.sevara@mail.ru](mailto:turobova.sevara@mail.ru)

## ПОЛИТИЧЕСКАЯ ФИЛОСОФИЯ ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ КОНЦЕПЦИИ “ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА”

*Турабова Севара Каттакуловна, доцент кафедры “Социальные науки” Термезского университета экономики и сервиса*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Yusuf Xos Hojib siyosiy tafakkurining “Uchinchi Renessans” konsepsiyasi doirasidagi o‘rni va uning hozirgi davlatchilik modelini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Bugungi siyosiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaraganda, mutafakkirning fikrlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, siyosiy rahbariyatning samaradorligini oshirish borasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, Uchinchi Renessans, siyosiy tafakkur, davlat boshqaruvi, adolat, qonun ustuvorligi, ma’naviy tiklanish, siyosat, rahbar mas’uliyati.

**Abstract:** This article is dedicated to analyzing the role of Yusuf Khass Hajib’s political thought within the framework of the “Third Renaissance” concept and its significance for the formation of the modern state structure. From the perspective of contemporary political processes, the thinker’s ideas hold important theoretical and practical value for strengthening the relationship between the state and society, ensuring justice and the rule of law, as well as enhancing the effectiveness of political leadership.

**Keywords:** Yusuf Khass Hajib, Kutadgu Bilig, Third Renaissance, political thought, state governance, justice, rule of law, spiritual revival, politics, responsibility of leadership.

**Аннотация:** Настоящая статья посвящена анализу роли политического мышления Юсуфа Хос Ходжиба в контексте концепции “Третий Ренессанс” и его значения для формирования современного государственного устройства. С точки зрения современных политических процессов, идеи мыслителя имеют важное теоретическое и практическое значение для укрепления взаимосвязей между государством и обществом, обеспечения справедливости и верховенства закона, а также повышения эффективности политического руководства.

**Ключевые слова:** Юсуф Хос Ходжиб, Кутадгу Билик, Третий Ренессанс, политическое мышление, государственное управление, справедливость, верховенство закона, духовное возрождение, политика, ответственность руководителя.

**KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Global siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvi tizimlari tobora murakkablashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston "Uchinchi Renessans" g'oyasi asosida siyosiy va ma'naviy tiklanish yo'lidan bormoqda. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotining konseptual asoslarini qayta shakllantirish, demokratik institutlarni mustahkamlash va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy merosga, ayniqsa, davlatchilik va adolat masalalariga oid mumtoz manbalarga murojaat qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Yusuf Xos Hojibning 1069 yili turkiy tilda yaratilgan "Qutadg'u bilig" (Baxtga eltuvchi ilm) asari o'z davrida Sharq-u G'arbda dong taratgan asar bo'lib, asarda davlat boshqaruvi va siyosiy tafakkur masalasiga doir o'ziga xos konseptual qarashlar ham ilgari surilgan. Bu qarashlar yurtning sodiq davlat arbobi (U Qoraxoniylar davlatining "xos hojibi" davlat kotibi bo'lgan) tomonidan bayon qilinganligi bilan diqqatni o'ziga tortadi. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida "ideal shaxs, jamiyat, davlat qanday shaklla nishi kerak, ideal shaxs fazilatlar qanday bo'lishi lozim va bu fazilatga qanday qilib erishib bo'ladi, mansab sohiblarining xususiy, shaxsiy hayoti va jamiyat hamda davlat manfaatlariga munosabati qay tartibda bo'lishi shart"[3,16-b.] kabi muhim masalalarning falsafiy sistemasini yaratadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS).** Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan "Qutadg'u bilig" asari nafaqat falsafiy-ma'rifiy, balki siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo'lib, hozirgi davlat boshqaruvi tizimi uchun muhim metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Asarda adolatli hokimiyat, rahbar mas'uliyati, qonun ustuvorligi va jamiyat barqarorligi masalalari keng yoritilgan. Ushbu g'oyalar bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan davlat boshqaruvi islohotlari, siyosiy elita mas'uliyatini oshirish va xalqparvar davlat qurish jarayonlari bilan mutanosibdir. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar keng ko'lamli bo'lib, ular asosan falsafiy, huquqiy, ma'naviy va adabiy jihatdan o'rganilgan. Shu bilan birga, asarning davlat

boshqaruvi va siyosiy tafakkurga ta'siriga doir tadqiqotlar ham mavjud bo'lsa-da, ular hozirgi global siyosiy jarayonlar va "Uchinchi Renessans" konsepsiyasi nuqtayi nazaridan to'liq qamrab olinmagan bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish va ommalashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo'shish mumkin.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvi, siyosiy tafakkur va jamiyat mukammalligi haqidagi keng qamrovli nazariy qarashlarni o'z ichiga olgan asar bo'lib, asardagi asosiy g'oyalar, xususan adolatli hukmronlik, qonun ustuvorligi, rahbar mas'uliyati va jamiyat barqarorligi masalalari bugungi kun siyosiy jarayonlari uchun ham dolzarbdir. "Uchinchi Renessans" konsepsiyasi doirasida ushbu masalalarni tahlil qilish Yusuf Xos Hojib merosining hozirgi davlatchilik modelini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Hususan, Yusuf Xos Hojib o'z asarida davlat rahbarining asosiy vazifasi adolatni ta'minlash ekanini ta'kidlaydi. U hokimiyatni insonlar o'rtasidagi tartib va barqarorlikni saqlash uchun zarur vosita sifatida ko'radi. Uning ta'kidlashicha, adolatsiz hukmronlik inqirozga olib keladi, rahbarning bilimsizligi esa davlat zaiflashishiga sabab bo'ladi:

*Budunug' bilig birla basti begi,  
Bilig bo'lmasa ishka yaqmas o'gi.*

**(Podshoh xalqni bilim bilan tutib turadi,  
Bilimi bo'lmasa ishga aqli yetmaydi).**

*Kuyar o't turur kuch yag'usa kuyar,  
Turu suv turur aqsa ne'mat unar.*

**(Zulm yonib turgan o'tga o'xshaydi,  
yaqinlashsa kuydiradi,**

**Adolat suv kabidir, oqsa  
ne'matlantiradi).**

Zero, "Yusuf Xos Hojib na ideal, na qo'l yetmas shohlikni emas, balki ma'rifatli shohlik g'oyasini" [5, 33-b.] ilgari suradi. Bu g'oyalarni hozirgi O'zbekistondagi **"Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak"** [1] tamoyili bilan bog'lash mumkin. Siyosiy rahbarning ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirish, davlat idoralari faoliyatining samaradorligini ta'minlash

hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar **Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan davlatchilik an'analariga uyg'un**. Xususan, Yusuf Xos Hojib qonun va odillik hokimiyatning asosiy ustuni ekanini quyidagicha ta'riflaydi:

*El artar to'ru birla etlur ajun,*

*El eksur buch birla buzlur ajun.*

**(Adolat bilan el rohatlanadi, olam gullaydi,**

**Zulm bilan el inqiroz topadi, olam buziladi).**

*Bu nang' alg'ug'a bir kerak boy budun,*

*Budun bayliqing'a to'ru tuz qodun.*

**(Mol-dunyo olish uchun boy xalq kerak,**

**Xalq boy bo'lishi uchun adolatli siyosat kerak).**

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Hozirgi kunda O'zbekistonda sud-huquq islohotlari doirasida huquqiy davlatni shakllantirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yusuf Xos Hojib fikricha, qonun faqat jazo vositasi emas, balki jamiyatning ma'naviy va siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma g'oyasini ilgari surib, hokimiyatning muvaffaqiyati xalqning qo'llab-quvvatlashiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

*Xalqqa rahbar, begga himmat lozimdur,*

*Himmat bilan birga muruvvat lozimdur* [5, 33-b.], deydi u.

Zero, **"Kimning himmati bo'lmasa u — o'likdir"**.

Ma'lumki, "Uchinchi Renessans" g'oyasi O'zbekistonda ma'naviy va intellektual tiklanish jarayonini anglatadi. Bu jarayonda davlatchilik an'analari va milliy merosga asoslangan holda zamonaviy siyosiy modellarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yusuf Xos Hojibning siyosiy qarashlari hozirgi davlat islohotlari uchun muhim nazariy asos bo'lishi mumkin. Adolatli davlat qurish, rahbarlarning intellektual salohiyatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va xalqparvar davlat modelini shakllantirish kabi tamoyillar Yusuf Xos Hojib asaridagi asosiy g'oyalardan biri bo'lgani bois, uning qarashlari "Uchinchi Renessans" davridagi siyosiy jarayonlarga chuqur integratsiya qilinishga munosib.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Yusuf Xos Hojib siyosiy tafakkuri hozirgi davlatchilik modelini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning adolatli hokimiyat, qonun ustuvorligi, rahbar mas'uliyati va davlat-jamiyat munosabatlari haqidagi qarashlari "Uchinchi Renessans" g'oyasi doirasida O'zbekistonning siyosiy modernizatsiya jarayoniga muhim hissa qo'shishi mumkin. Shu bois, Yusuf Xos Hojibning siyosiy-huquqiy merosini chuqurroq tadqiq etish, uni hozirgi davlat boshqaruvi amaliyotiga tatbiq etish hamda tarixiy an'alar va zamonaviy siyosiy jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berish bugungi siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.08.2017-yildagi F-5024-son Farmoyishi.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (To'rtliklar). Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1971. –16 B.
4. Muhamedov A. Yusuf Xos Hojibning Qutadg'u bilig asaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Andijon 2023.
5. Yoqubov A. Qutadg'u biligda davlatchilik konsepsiyasi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1997. – B. 33
6. Turabova, S. K. (2022). Innovatsion tafakkur—jamiyatning barqaror rivojlanish mezon. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 424-429.
7. Turabova, S. (2023). Socio-historical and logical-gnoseological analysis of the art of dispute in the